

Prezident Surxondaryoga jo'nab ketdi



Prezident Shavkat Mirziyoyev hududlar iqtisodiyoti, aholi turmush sharoitlari bilan yaqindan tanishish maqsadida Surxondaryo viloyatiga jo'nab ketdi.

Ikki kunlik amaliy tashrif davomida energetika, agrosanoat, savdo va qishloq xo'jaligi loyihalari salohiyati bilan tanishish, bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirish rejalashtirilgan.

Anorchilik va ipakchilik viloyat iqtisodiyotining «drayveri»ga aylanib bormoqda. Safar dasturida ushbu tarmoqlar rivojiga alohida ahamiyat qaratilgan.





Manba